

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH
VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2023. Ped.173.01
RAQAMLI ILMUY KENGASH**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

VALIXANOV ILYOS ILXAMOVICH

**TALABALARDA HARBIY-KASBIY MOTIVATSİYANI
RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-PEDAGOGİK ASOSLARI
(harbiy ta'lif misolida)**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogika ta'lifotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Valixanov Ilyos Ilxamovich

| | |
|--|---|
| Talabalarda harbiy-kasbiy motivatsiyani rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari (harbiy ta'lim misolida) | 3 |
|--|---|

Валиханов Илёс Илхамович

| | |
|--|----|
| Теоретико-педагогические основы развития военно-профессиональной мотивации студентов (на примере военного образования) | 25 |
|--|----|

Valikhanov Ilyos Ilkhamovich

| | |
|--|----|
| Theoretical and pedagogical basis for the development of military-professional motivation among students (on the example military education) | 47 |
|--|----|

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

| |
|-----------------------------|
| Список опубликованных работ |
|-----------------------------|

| | |
|-------------------------------|----|
| List of published works | 52 |
|-------------------------------|----|

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH
VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2023. Ped.173.01
RAQAMLI ILMUY KENGASH**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

VALIXANOV ILYOS ILXAMOVICH

**TALABALARDA HARBIY-KASBIY MOTIVATSİYANI
RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-PEDAGOGİK ASOSLARI
(harbiy ta'lif misolida)**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogika ta'lifotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Ped3340 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.bimm.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lif portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdullayeva Shahzoda Abdullayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Muhammad Quronov
pedagogika fanlari doktori, professor

Yuzlikayev Farit Rafailovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Etakchi tashkilot:

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti.

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lif tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "05" - 12 kuni soat 10" dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy, +998 71 202 01 20, info@bimm.uz).

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lif tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (6 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy, +998 71 202 01 20, info@bimm.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "15" - 11 kuni tarqatildi.
(2024-yil "15" - 11 dagi 6 raqamli reyestr bayonnomasasi).



U.Sh.Begimkulov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

A.S.Djurayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
PhD., dotsent

Ya.U.Ismadiyarov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsaфа doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonning rivojlangan mamlakatlari ta’lim tizimida ta’lim oluvchilarning individual o‘quv trayektoriyasini ishlab chiqish, kasbiy faoliyatga tayyorlashning dual ta’lim texnologiyalarini joriy etishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu, o‘z navbatida, professionallashuvning internal va eksternal motivlarini qaror toptirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, globallashuv sharoitida kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, aholi tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, tabiiy va texnogen ofatlar bo‘lajak mutaxassislar o‘z faoliyatini “Barcha sa’y-harakatlar inson qadri uchun”¹ degan ustuvor g‘oya asosida pedagogizatsiyalashtirishini talab etmoqda. Shundan kelib chiqib, ta’lim oluvchilarining siyosiy ongi, harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish, ularning qalbi va yuragiga yurtparvarlik, Vatanga sadoqat tuyg‘ularini singdirishga qaratilgan didaktik jarayonlarni tashkil etish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Dunyoda talabalarni kvaziprofessional faoliyatga jalb etish orqali kasbiy ijtimoiylashuvini ta’minalash, pedagogik konsepsiyalarni yaxlit tarzda tahlil etish orqali kasbiy kompetentlik muammosining tarixiy-nazariy asoslarini aniqlashtirish, bo‘lajak mutaxassis shaxsini zamonaviy fazilatlar asosida shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslarini ishlab chiqishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, jamoat xavfsizligini ta’minalash yo‘nalishidagi tadbirlarni “Xalq manfaatlariga xizmat qilish”² tamoyili asosida tashkil qilishning konseptual asoslarini takomillashtirish, harbiy ta’limning rivojlanish tendensiyalarini prognozlash, davlat organlarini jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorlikka yo‘naltirishning kooperativ jihatlarini asoslashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, kasbiy tayyorlash jarayoni, harbiy faoliyatning motivatsion sohasi o‘ziga xosliklari va tuzilmasini aniqlashtirish, ta’lim oluvchilarda tarixan shakllangan qadriyatlar tizimini tarkib toptirishning pedagogik tizimini takomillashtirish talab etiladi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamdagi islohotlar zamirida aholining barcha qatlamlari uchun osuda va tinch hayotni ta’minalash hamda fuqarolik jamiyatida qonun ustuvorligi va jamoat xavfsizligini ta’minalash bo‘yicha kadrlar tayyorlash va harbiy madaniyatni shakllantirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida tahsil oluvchilarning harbiy-texnik tayyorgarligi va jangovar shayligini kuchaytirish, ularning vatanparvarlik va milliy g‘urur tuyg‘usini yangi bosqichga ko‘tarish, O‘zbekiston manfaatlariga nafaqat harbiy soha, balki hayotning barcha jabhalarida sadoqatli bo‘lish, ularni himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo‘lish – bularning barchasi bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta’sirchan vositalar orqali yoshlar ongiga singdirib borish, ularda harbiy-kasbiy motivatsiyani rivojlantirish alohida dolzarblik kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagи PF-5106-son “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi kontsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-27-son. 2021-yil 29-noyabr. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021-y., 06/21/27/1116-son; 16.01.2024-y., 06/24/10/0031-son.

² O‘sha manba.

“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagি PF-6196-son “Jamoat xavfsizligini ta’minalash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlар organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagи PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi 267-son “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlanirishning I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy-ma’rifiy rivojlanirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish hamda ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darjasи. Mamlakatimizda milliy o‘zlikni anglash, Vatanga sadoqat tuyg‘ularini shakllantirish, milliy til va madaniyatni taraqqiy ettirish, yosh avlodda milliy ma’naviyatimizga xos bo‘lgan his-tuyg‘ular: g‘urur, vatanparvarlikni shakllantirish muammolarining psixologik va pedagogik jihatlari M.Quronov, O.Musurmonova, Sh.Abdullyeva, V.Karimova, E.G‘oziyev va boshq. tomonidan tadqiq etilgan. Ta’lim subyektlarining vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, uning rivojlanganlik darajasini diagnostika qilish, Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi talabalarini o‘qitish masalalari A.Uzoqov, O.Karimjanov, A.Xasanov va boshq. tomonidan o‘rganilgan. Harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini rivojlanirishsh mexanizmlarini takomillashtirish masalalari Z.Sh.Alimardonov, N.A.Muslimov va boshq. tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligi olimlari I.P.Podlasiy, M.V.Yelizarova, D.A.Novikov, A.V.Darinskiy, A.V.Merenkov, N.Kuzmina, A.Rean, K.K.Platonov va boshq. tomonidan ta’lim oluvchilarining o‘quv, kasbiy motivatsiyasini oshirish, faoliyatni tashkil qilish, harbiy-o‘quv mashg‘ulotlarda motivatsion yondashuvni amalga oshirish muammolari o‘rganilgan. Harbiy ta’lim tashkilotlari kursantlarini kelgusi faoliyatga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishga oid tadqiqot ishlari Ye.A.Klimov, V.A.Krutetskiy tomonidan olib borilgan. Tahsil oluvchilarining ta’lim olish ishtiyoqini oshirish, muammoga psixologik yondashuv masalalari E.V.Vostroknutov, E.F.Zeyer, I.A.Zimnyaya, I.S.Kon, S.Rubinshteyn, N.A.Paxtusova, A.N.Leontyev; Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar akademiyasi kursantlarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda motivlarning o‘rnı I.A.Kucheryavenko, S.V.Shkilev, N.Gumilyov va P.I.Pidkasistiy tomonidan tadqiq qilingan.

Xorijiy davlatlar olimlari B.A.Rojers, A.Maslou, K.Levin, S.Xolliford, S.Uiddet, E.F.Holton va boshq. tomonidan kadrlarni tayyorlashda ularning kasbiy kompetensiyalari aloqador omillar; shaxsning motivatsiyasi, uni rivojlantirish asosida kasbiy faoliyatini tashkil qilish masalalari o‘rganilgan.

Biroq jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, zamonaviy sharoitda shu soha bakalavriat yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida tayyorlanayotgan bo‘lajak kadrlarning harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishda tashkil qilinadigan didaktik jarayonlarni tizimlashtirishning pedagogik mazmun-mohiyati alohida tadqiqot predmeti sifatida o‘rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Talabalarda harbiy-kasbiy motivatsiyani rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari” (2022-2026-yy.) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“motivatsiya”, “kasbiy motivatsiya”, “harbiy-kasbiy motivatsiya” kabi konseptlar mohiyatini pedagogik kategoriya sifatida aniqlashtirish;

nazariy determinantlarning harbiy-kasbiy motivatsiyani rivojlantirish imkoniyatlarini yoritib berish;

talabalarda harbiy-kasbiy motivatsiyani rivojlantirish modelini konceptual va indikativ strukturaga muvofiq ishlab chiqish;

talabalarning tipologik tavsifnomasini korreksiyalash asosida harbiy-kasbiy motivatsiyani rivojlantirishning nazariy-pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinovga jami 541 nafar respondent jalb qilingan.

Tadqiqotning predmetini talabalar harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish mazmuni, modeli va shart-sharoitlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda kuzatuv, ijtimoiy so‘rov, anketa, intervyu, pedagogik diagnostika, qiyosiy tahlil, pedagogik tajriba-sinov, matematik statistika, monitoring, bashorat, umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quydagilardan iborat:

“motivatsiya”, “kasbiy motivatsiya”, “harbiy-kasbiy motivatsiya” kabi tushunchalarning pedagogik mohiyati ehtiyojlar iyerarxiyasining tarixiylik, vorisiylik, aktualligining empirik jihatini asoslash, “obyekt – ehtiyoj”, “ehtiyoj – obyekt” dualligiga muvofiq qadriyatli yo‘nalganlik interiorizatsiyasi eksternallahuvi dinamikligiga ustuvorlik berish orqali aniqlashtirilgan;

talabalarda harbiy-kasbiy motivatsiyani rivojlantirishning daxldorlik, fidoyilik, mafkuraviy tahdidlardan himoyalanish kabi determinantlari noprofessional, statistik, dinamik ko‘rinishga ega motivlashtirish jarayonlarining ichki va tashqi rag‘bat bilan reallashuv imkoniyatlarini o‘zini o‘zi rivojlantirishning individual trayektoriyasiga muvofiqligini ta’minlash asosida aniqlashtirilgan;

talabalarda harbiy-kasbiy motivatsiyani rivojlantirish modelining mazmunli komponenti faoliyatga doir nazariyaga muvofiq o‘quv-bilish, mehnat, harbiy- kasbiy faoliyat turlarini mutaxassis shaxsiga nomotetik va ideografik integratsiyalash asosida amaliy yo‘naltirilgan faoliyat va harbiy-kasbiy vaziyatlarni modellashtirish tuzilmasini pedagogik loyihalash asosida takomillashtirilgan;

talabalarning tipologik tavsifnomasini korreksiyalash asosida harbiy-kasbiy motivatsiyani rivojlantirishning tarbiyaviy ishlar mazmunini harbiy-tarixiy meros bilan boyitish, ta’lim oluvchilarni irodaviy o‘zini o‘zi yo‘naltirish va stressga barqarorlikka o‘rgatish kabi nazariy-pedagogik shart-sharoitlari ta’limiy motivlarning personifikatsion transformatsiyasini shaxsiy risklar ta’sirini bartaraf etishga adekvatligini hisobga olish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bakalavr ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun “O‘q otish tayyorgarligi” nomli darslikni ta’lim jarayoniga tatbiq qilish orqali didaktik tizimlardagi (auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar) ta’lim sifati oshirilgan;

talabalar harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi tizimli model takomillashtirilib, harbiy vatanparvarlikka oid testologiya ko‘rsatkichlari tarkibi kengaytirilgan;

bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalarining harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish uchun tavsiya etilayotgan didaktik jarayonlarni tizimlashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoga oid dissertatsiyalar, yondashuvlar, ilmiy tendensiyalar komparativ tahlil etilgani, tanlab olingan metodlarning samarali ekani, xolis va rasmiy manbalardan foydalanish natijasida ularga obyektiv baho berilgani, tadqiqot natijalarining samaradorligi matematika va statistika metodlari yordamida asoslangani, amaliyotga joriy qilingani va vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tarbiyaviy vosita sifatida taklif etilgan determinantalar talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish instrumenti va mexanizmlarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etishga nazariy-konseptual qarashlarni boyitgani hamda darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarning kontenti mazkur zamonaviy qarashlar asosida takomillashtirilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, talabalarda harbiy-kasbiy motivatsiyani rivojlantirish uchun mo‘ljallangan auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar uchun “O‘q otish”, “Harbiy tayyorlov” o‘quv qo‘llanmalari ishlab chiqilgani, ular asosida didaktik jarayonlarni tizimlashtirish modeli takomillashtirilgani va takliflar oliy ta’lim tashkilotlari amaliyotiga joriy etilgani bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalaridan DTS va malaka talablari bajarilishini ta’minlash, kelgusidagi kasbiy faoliyatni tashkil qilishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishda tashkil qilinadigan didaktik jarayonlarni tizimlashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

“motivatsiya”, “kasbiy motivatsiya”, “harbiy-kasbiy motivatsiya” kabi tushunchalarning pedagogik mohiyati ehtiyojlar iyerarxiyasining tarixiylik, vorisiylik, aktualligining empirik jihatini asoslash, “obyekt – ehtiyoj”, “ehtiyoj – obyekt” dualligiga muvofiq qadriyatli yo‘nalganlik interiorizatsiyasi eksternallashuvi dinamikligiga ustuvorlik berish orqali, talabalarda harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning daxldorlik, fidoyilik, mafkuraviy tahdidlardan himoyalanish kabi determinantalari noprofessional, statistik, dinamik ko‘rinishga ega motivlashtirish jarayonlarining ichki va tashqi rag‘bat bilan reallashuv imkoniyatlarini o‘zini o‘zi rivojlantirishning individual trayektoriyasiga muvofiqligini ta’minalash asosida aniqlashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan Jamoat xavfsizligi universiteti sirtqi ta’lim yo‘nalishi uchun “O‘q otish tayyorgarligi” darsligini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-sod buyrug‘i, 218-726 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, ta’lim oluvchilarda harbiy-kasbiy motivlarni kompleks rivojlantirishga xizmat qilgan;

talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish modelining mazmunli komponentini faoliyatga doir nazariyaga muvofiq o‘quv-bilish, mehnat, harbiy- kasbiy faoliyat turlarini mutaxassis shaxsiga nomotettik va ideografik integratsiyalash asosida amaliy yo‘naltirilgan faoliyat va harbiy-kasbiy vaziyatlarni modellashtirish tuzilmasi algoritmini pedagogik loyihalash asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutida bajarilgan FZ-2016-0910202206 – “Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbazarlikka moyil o‘quvchilarni tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalari” (2016-2019 yy.) fundamental loyihasining “Huquqbazarlikka moyil o‘quvchilarda harbiylik kasbiga qiziqish va motivlarni shakllantirish” qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022-yil 2-noyabrdagi 02-07-3863/04-sod dalolatnomasi). Natijada, ta’lim oluvchilarda harbiy-kasbiy sohaga doir motivlarni shakllantirish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

talabalarning tipologik tavsiynomasi korreksiyalash asosida harbiy-kasbiy motivatsiyani rivojlantirishning tarbiyaviy ishlar mazmunini harbiy-tarixiy meros bilan boyitish, ta’lim oluvchilarni irodaviy o‘zini o‘zi yo‘naltirish va stressga barqarorlikka o‘rgatish kabi nazariy-pedagogik shart-sharoitlarini ta’limiy motivlarning personifikatsion transformatsiyasini shaxsiy risklar ta’sirini bartaraf etishga adekvatligini hisobga olish orqali takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan Jamoat xavfsizligi universiteti sirtqi ta’lim yo‘nalishi uchun “O‘q otish tayyorgarligi” darsligini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-sod buyrug‘i, 218-726 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasining rivojlanganligi diagnostikasini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika anjumanida aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta darslik, 1 ta elektron darslik, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini e’lon qilish uchun tavsiya etgan nashrlarida 6 ta maqola, shundan 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, 9 paragraf, boblar bo‘yicha xulosalar, umumiy xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, uning umumiy hajmi 138 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbliji va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, ishning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e’lon qilinganligi, dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Talabalarda harbiy-kasbiy motivatsiyani rivojlantirishning nazariy-konseptual asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida oliv ta’lim tashkilotlarida talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik zarurat ekani ilmiy asoslangan, talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish bo‘yicha respublika va xorij davlatlari tajribasining komparativ tadqiqi o‘z ifodasini topgan.

Bobda pedagogika, psixologiya, sotsiologiyaga oid adabiyotlarni tahlil qilish natijasida (A.Maslou, Dj.Rodgers, K.Levin, I.S.Kon, V.Karimova, E.G‘oziyev va boshqalar) “motiv”, “motivatsiya”, “kasbiy motivatsiya”, “harbiy-kasbiy motivatsiya” tushunchalarining mohiyati tahlil etilgan va ularning mualliflik ta’rifi keltirilgan. Xususan:

Motiv – inson xulq-atvorini boshqaradigan, uning yo‘nalishi, tashkiliyligi, faolligi va barqarorligini belgilaydigan fiziologik va psixologik plandagi dinamik jarayon. Inson qaysi yo‘lni tanlashi motiv, aniqrog‘i, butun motivlar majmuasiga bog‘liq.

Motivatsiya (lot. *moveare* “ichki da’vat”, “ruhiy ehtiyoj”) murakkab tashkillashgan ruhiy tartibdagi tuzilma bo‘lib, fiziologik, ma’naviy-ma’rifiy, estetik, kognitiv, o‘zini o‘zi anglashga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish. Motivatsiya talabalarning didaktik jarayonlarda bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishlarini ta’minlaydi. Xuddi shu bilimlar talabalar tomonidan o‘quv faoliyati natijasida qayta ishlanadi va ijodiy o‘zlashtiriladi. Talabada vujudga kelgan ilmiy nuqtai nazarning barqarorligi unda hosil bo‘lgan obyektiv dunyoqarashning tadrijiyligi va izchillagini ta’minlaydi.

Kasbiy motivatsiya shaxs xususiyati sifatida kasbga ongli munosabatda bo‘lish, malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lish, bilimlarni faol o‘zlashtirishga undaydigan ehtiyoj, maqsadlar tizimi hisoblanadi.

Harbiy-kasbiy motivatsiya – bu harbiy xizmatchi yoki fuqaro tomonidan harbiy xizmat sohalariga bo‘lgan qiziqish, ijtimoiy muhitning shart-sharoitlari va omillari, ularning mazmuni va ahamiyatini anglash va qabul qilish jarayoni, shuningdek, fikrlash va xatti-harakatlarning asosi bo‘lgan faol harakatlantiruvchi kuchga aylanishi natjasidir. Harbiy-professional motivatsiyaning ma’nosi harbiy xizmatchining shaxsiy hayotida mustahkamlangan asosiy shartlarga mos keladigan stimullarni topishdir.

Harbiy-kasbiy motivatsiyaning namoyon bo‘lishi – obyektiv voqelikning inson xatti-harakatlarining ichki harakatlantiruvchi kuchlariga ta’sirini muvofiqlashtirishning murakkab jarayoni. U turli xil motivlar: *qadriyatli munosabatlar, qiziqishlar, yo‘nalganliklar, maqsadlar va munosabatlar* orqali amalga oshadi (1-rasmga qarang).




1-rasm. Shaxsning ichki harakatlantiruvchi kuchlarida harbiy-kasbiy motivlarning o‘rni

Yuqorida fikrlarni inobatga olib, tadqiqotda harbiy-kasbiy motivatsiyaning amaliy-pragmatik mexanizmlari belgilandi (2-rasmga qarang).

Didaktik jarayonda talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish samaradorligini oshirish uchun shaxsiy-yo‘naltirilgan texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq qilish muhim.

O‘quv materialini idrok qilish va o‘zlashtirish taksonomiyasini qo‘llash natijasida: a) talabalarning aniq maqsadga intilishi; b) ichki motivatsiyani kuchaytirish; v) o‘qish jarayonida topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish; g) o‘quv vaziyatlarini oqilona baholash; d) bajarilgan topshiriqlar natijasini ko‘ra olish; e) o‘quv maqsadlari va vazifalarining umumiy tamoyillari, harakatlar tavsifini to‘liq idrok etish; j) o‘qituvchi va ofitserlar tomonidan taqdim etilgan hamda avval egallangan bilim va ko‘nikmalarni hisobga olib, kelgusidagi o‘quv maqsadlarini oydinlashtirishga erishildi.



2-rasm. Talabalarining harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish mexanizmi komponentlari

Dissertatsianing ikkinchi bobi “**Didaktik jarayonlarni tizimlashtirish orqali talabalarining harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari**” deb nomlanib, unda talabalarining harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish determinantlari, bosqichlari, prinsiplari, amaliyotdagi holati o'z ifodasini topgan. Oliy ta'lrim muassasasida talabalarining harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning muhim omillaridan biri – bu o'z kasbi sirlarini yaxshi biladigan raqobatbardosh mutaxassisni shaklantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik asoslarni tashkil qilishdir. Auditoriya (ma'ruza, seminar va sh.k.) va auditoriyadan tashqari mashg'ulatlarda (fakultativ kurslar, saf tortish, saf qo'shiqlari, jismoniy musobaqalar va sh.k.) professional kompetensiyalarni rivojlantirish eng muhim shartlardan biridir.

G.N.Baturinaning ta'kidlashicha, maqsadlarga erishish pedagogik sharoitlar, o'qitish mazmuni, usullari, tashkiliy shakllari elementlarini maqsadga muvofiq tanlash, loyihalash va qo'llash natijasidir. Muallif fikriga qo'shimcha sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish uchun samarali o'qitishning pedagogik shartlari: ta'limning barcha tarkibiy qismlariga ta'sir ko'rsatadigan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, chora-tadbirlar, didaktik ta'minot, axborot-kommunikatsiya vositalari, ta'lim shakllari, ta'lim metodlari, vositalari va pedagogik omillar majmuidan iborat. Boshqacha qilib aytganda, talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish uchun didaktik jarayon paradigmasi quyidagi pedagogik asoslar muhim hisoblanadi: 1) didaktik jarayonga taalluqli me'yoriy-huquqiy hujjatlar; 2) pedagoglar salohiyati; 3) o'qitish tamoyillarining to'g'ri tanlangani; 4) ta'lim shakllari, metodlari, vositalari; 5) didaktik ta'minot; 6) optimal pedagogik-psixologik muhitning tashkil qilingani; 7) moddiy-texnik baza; 8) axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish holati va sh.k.

Mazkur bobda 2019/2020-, 2020/2021-, 2021/2022-, 2022/2023-o'quv yillarida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Farg'ona davlat universiteti va Buxoro davlat pedagogika instituti harbiy ta'lim fakultetlari bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida olib borilgan tajriba-sinov ishlari aks ettirilgan. Shuningdek, bobda jahon pedagogikasidagi ilg'or metodikalarga tayanib, didaktik tizimlarda talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan determinantalar tuzilishi o'r ganilgan.

Determinantalar shaxsning rivojlanishi bog'liq bo'lган shartlar, sabablar, omillardir. Talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish determinantlari: *daxldorlik, fidoyilik, mafkuraviy tahdidlardan himoyalanish* kabilar aniqlandi va tarbiyaviy ishlar samaradorligiga ustuvorlik berish asosida pedagogik shart-sharoitlar tashkil etildi.

Talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish uchun didaktik metodlar bilan birga *ishontirish; mashq qildirish va mustaqil ishlash; kuzatish; rag'batlantirish; shaxsiy namuna* kabi tarbiyaviy metodlardan foydalanish samarali ekani, shuningdek, bir qator pedagogik metod, vositalarni quyidagicha turkumlash asosida foydalanilganda samarali metodik natijalarga erishish mumkinligi aniqlandi (3-rasmga qarang).

Talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishga didaktik jarayonlardagi o'quv materiallarini *tushunish, tushuntira olish, tasvirlash, aniqlash, muhokama qilish, shakllantirish, namoyish qilish, illyustratsiyalash* kabi kategoriylar yordamida muvaffaq bo'linadi. *Bilim olishga yo'naltirilgan vazifalar saf tortish, qurol-aslahani yig'ish, muammoni yechish, rejalahtirish, tushuntirish, ko'rsatish, tajribadan o'tkazish, jismoniy mashq bajarish, qo'llash, o'qitish, namoyish etish* va boshqalar asosida shakllanriladi.

Rasmda ifodalanganidek, talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasini oshirishga mo'ljallangan tarbiyaviy metod va vositalar ularda mustahkam iroda, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

TALABALARDA HARBIY-KASBIY MOTIVATSİYANI RIVOJLANTIRISH




3-rasm. Talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishga mo'ljallangan pedagogik shakl, usul va vositalar

Tahlillarga ko'ra, bugungi kunda talabalar o'rtasida harbiy-kasbiy motivatsiyaning rivojlanganlik darajasi 89% tashkil qildi. Harbiy-kasbiy motivatsiyaning yetakchi unsurlari – vatanparvarlikni xolis baholovchilar diagnostika qilinganda o'rtacha 99%, umumbashariy va milliy qadriyatlar, ma'naviyat, xalqimizning ma'naviy merosini tahlil qila olish qobiliyatları 92%, iqtisodiyot, islohot va taraqqiyot yo'nalishida bo'layotgan o'zgarishlarni anglash 78%, milliy g'oya va dunyo mafkurasi bo'yicha bilimlarga egalik 87%, daxldorlik tuyg'usi 92%, mafkuraviy xurujlardan himoyalanish ko'nikmalari 98% va boshqa yo'nalishlarda muayyan foizlardagi ko'rsatkichlar namoyon bo'ldi.

Talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishda kasbiy faoliyatga tayyorlashning integrativ usullari va subyekt faoliyatining turlari aniqlanib, shu asosda talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi. Model tizimlashtiriluvchi elementlardan tashkil topgan bo'lib, ular kelgusidagi yaxlit faoliyat mazmunni yoritadi hamda ularni tinch va harbiy sharoitda mehnat qilish, harbiy burchga sadoqatli bo'lish, Vatani va xalqi taqdiri uchun yuksak mas'uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishda ifodalanadi (4-rasmga qarang).

Modelda aks ettirilganidek, ta'lim subyektlarining ijtimoiy-pedagogik sharoitlari ta'lim muassasalarining o'quv-moddiy bazasi, o'qituvchilarning kasbiy malaka darajasi, o'quv imkoniyatlari, jamoadagi shaxslararo munosabatlari, ta'lim shakllari, o'qitishning zamonaviy texnologiyalari, metodlarini o'z ichiga oladi.



4-rasm. Talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish modeli

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishda tashkil qilinadigan didaktik jarayonlarni tizimlashtirish samaradorligi**” deb nomlanib, unda talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish modelini amaliyatga tatbiq qilish bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari aks ettirilgan mazmuni va uning samaradorligi asoslangan.

Tajriba maydonlari sifatida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Farg‘ona davlat universiteti va Buxoro davlat pedagogika instituti harbiy ta’lim fakultetlari belgilandi. Tadqiqotda jami 541 nafar respondent (439 nafar bakalavriat talabasi, 72 nafar professor-o‘qituvchi; 12 nafar tyutor, 18 nafar harbiy qatnashdi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Tajriba-sinovga jalb qilingan OTM va respondentlar soni

| T.r. | OTM nomi | Tajriba-sinovda qatnashgan talabalar soni | Professor-o‘qituvchilar soni | Tyutorlar soni | Harbiylar soni |
|-------------|--|--|-------------------------------------|-----------------------|-----------------------|
| 1 | Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti | 157 | 20 | 4 | 6 |
| 2 | Buxoro davlat pedagogika instituti | 135 | 23 | 4 | 6 |
| 3 | Farg‘ona davlat universiteti | 147 | 29 | 4 | 6 |
| | Jami | 439 | 72 | 12 | 18 |

Talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasi darajasini ko‘rsatuvchi mezonlar saralandi va tajriba mashg‘ulotlarida qo‘llanadigan metodlar tizimlashtirildi (2-jadvalga qarang).

Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish bo‘yicha tashkil qilingan tajriba-sinov to‘rtta: aniqlovchi (2019/2020- o‘.y.), ta’kidlovchi (2020/2021-o‘.y.), shakllaniruvchi (2021/2022-o‘.y.) va yakunlovchi (2022/2023-o‘.y.) bosqichda o‘tkazildi.

Tajriba-sinovda didaktik jarayonlar samaradorligini aniqlash tajriba dasturidan o‘rin olgan “Talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasining tirologik tavsifnomasi”, “Daxldorlik tuyg‘usini shakllantirish va rivojlantirish (Jaloliddin Manguberdi jasorati misolida)” diagnostika metodikalari, “Qadriyatli unsurlarga ustuvorlik berish” indikativ vositachi modeli asosida amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida ma’ruza, kollaborativ, tahlil, munozara, vaziyatlarni yaratish kabi metodlardan foydalanish samarali ekani aniqlandi.

O‘tkazilgan (439 nafar talaba ishtirokida) tajriba-sinov natijalari yuqorida qayd etilgan algoritmgaga asosan hisob-kitob qilinib, tajriba va nazorat guruhlari talabalarining harbiy-kasbiy motivatsiyasi rivojlanganlik darjasini ko‘rsatkichlari asosida baholash ishlari olib borildi.

2-jadval

Talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasi darajasini ko‘rsatuvchi mezonlar

| Talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasining shakllanganlik darajasi | Talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasi darajasini ko‘rsatish mezonlari |
|--|---|
| I – yuqori daraja | Shaxsiy motivatsiya, tashabbus va o‘z kasbiga qiziqishni namoyon etadi. DTS talablarini to‘liq amalgalash oshira oladi. Har tomonlama mukammal axborot, nazariy va amaliy bilimlari rivojlangan, ya’ni, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasining mazmuni va mohiyati, zamonaviy umumqo‘sish jangining mohiyati, uning o‘ziga xos xususiyatlari va unga qo‘yilgan talablar haqidagi nazariy bilimlar; asosiy jang turlarida harakatlanish taktikasi tushunchalari bo‘yicha amaliy kompetensiyalarga ega. Texnik vositalar, ular bilan ishlash ko‘nikmalari va malakalari; axborot kommunikatsiya vositalari va ulardan foydalanish ko‘nikma va malakalari, innovatsion metodlar va ular tavsifnomalari bo‘yicha to‘liq, mukammal va anglangan bilimlar shakllangan. |
| II – o‘rtacha daraja | Nazariy ma’lumotlarni amalda qo‘llay oladi. Nazariyani amaliyatga joriy etish mazmunini anglaydi, uning talablarini biladi, ular to‘g‘risida fikr yurita oladi; taqdim qilinayotgan o‘quv mavzularini yaxlitlikda idrok etish, voqealar va hodisalar o‘rtasidagi aloqadorlikni tasavvur etish, ichki qonuniyatlarni anglash bo‘yicha ma’lumotlar amaliy harakatlar bilan to‘liq uyg‘un emas. |
| III – past daraja | Nazariyani amaliyatga joriy etishni muhim hayotiy mezon sifatida qadrlamaydi. Barcha ma’lumotlar amaliy harakatlar bilan ta’minlanmagan, nazariy holda mavjud. Bilim, ko‘nikma va malakalar umumiyligi ma’lumot sifatida shakllangan, ammo konkret bilimlar mavjud emas. Shaxsiy motivatsiya, tashabbus va o‘z kasbiga qiziqish mavjud bo‘lishi shart ekanini inkor etadi, uni kelajakdagi shaxsiy faoliyatida rivojlantirish choralarini ko‘rmaydi. |

Hamma oliy ta’lim tashkilotlarida o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalari tahlil qilindi.

Talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar darajalari yuzasidan olingan yakuniy natijalarni baholashda matematik-statistika metodi qo‘llandi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari bo‘yicha tajriba-sinov ishlarining umumlashgan dastlabki (TB) va yakuniy (TO) natijalari

| T.r . | Mezonlar | Tajriba guruhi (220 nafar) | | | | | | Nazorat guruhi (219 nafar) | | | | | |
|----------|--|----------------------------|------------|-----------|-----------|-----------|-----------|----------------------------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|
| | | I-yuqori | | II-o‘rta | | III-past | | I-yuqori | | II-o‘rta | | III-past | |
| | | TB | TO | TB | TO | TB | TO | TB | TO | TB | TO | TB | TO |
| 1 | Fuqarolik daxldorligiga tayanuvchi vatanparvarlik tushunchalarining shakllanganligi | 63 | 109 | 73 | 73 | 84 | 38 | 59 | 62 | 73 | 72 | 87 | 85 |
| 2 | Ma’naviyatlilik, ma’rifatlilik, madaniyatatlilik, axloqiyilik darajasi | 62 | 107 | 74 | 71 | 84 | 42 | 57 | 60 | 71 | 73 | 90 | 86 |
| 3 | Harbiy-kasbiy faoliyatga bo‘lgan motivatsiyaning rivojlanganlik darajasi | 61 | 108 | 71 | 73 | 88 | 39 | 60 | 59 | 73 | 71 | 86 | 89 |
| 4 | Baynalminallik sifatlarining rivojlanganlik darajasi | 64 | 110 | 70 | 71 | 85 | 39 | 56 | 63 | 71 | 73 | 92 | 83 |
| 5 | Vatani, davlati, jamiyat, oila, mahalla, do’stlari oldidagi burchi va mas’uliyatini his qilish darajasining shakllanganligi | 65 | 106 | 71 | 72 | 84 | 42 | 59 | 60 | 74 | 77 | 86 | 82 |
| 6 | Vatanimiz suvereniteti va mustaqilligini mustahkamlashdek ustuvor tamoyillarga tayanish darajasi | 62 | 107 | 73 | 73 | 85 | 40 | 58 | 62 | 70 | 74 | 91 | 83 |
| 7 | Qurolli Kuchlar oldida turgan vazifalar, milliy armiyamiz qurilishi va rivojlanishini davom ettirish bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlarni anglash darajasi | 64 | 109 | 72 | 74 | 84 | 37 | 57 | 61 | 72 | 76 | 90 | 82 |
| | O‘rtacha | 63 | 108 | 72 | 73 | 85 | 39 | 58 | 61 | 72 | 75 | 89 | 83 |

Izoh. Tajriba boshidagi (TB) va tajriba oxiridagi (TO) qiymatlar taqqoslandi.

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tajriba oxiridagi talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik mexanizmlari bo‘yicha mezonlarning barchasida tajriba boshidagiga nisbatan sezilarli o‘zgarish kuzatilgan. Tajriba boshidagi (TB) va tajriba oxiridagi (TO) ma’lumotlarning kurslar bo‘yicha umumiy jadvalini keltiramiz (4-jadvalga qarang).

4-jadval

Talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari bo‘yicha tajriba-sinov ishlaringning umumlashgan dastlabki (TB) va yakuniy (TO) natijalari (kurslar bo‘yicha)

| Tadqiqot obyektlari | Tajriba guruhlari (220 nafar) | | | | | | Nazorat guruhlari(219 nafar) | | | | | |
|---------------------|-------------------------------|------------|-------------------|-----------|-------------------|-----------|------------------------------|-----------|-------------------|-----------|-------------------|-----------|
| | I – yuqori daraja | | II – o‘rta daraja | | III – past daraja | | I – yuqori daraja | | II – o‘rta daraja | | III – past daraja | |
| | TB | TO | TB | TO | TB | TO | TB | TO | TB | TO | TB | TO |
| 1-kurs | 14 | 24 | 16 | 17 | 22 | 11 | 14 | 14 | 17 | 17 | 21 | 21 |
| 2-kurs | 14 | 25 | 17 | 19 | 24 | 11 | 13 | 15 | 19 | 19 | 23 | 21 |
| 3-kurs | 16 | 29 | 20 | 19 | 20 | 8 | 15 | 15 | 18 | 18 | 22 | 22 |
| 4-kurs | 19 | 30 | 19 | 18 | 19 | 9 | 16 | 17 | 18 | 21 | 23 | 19 |
| Jami | 63 | 108 | 72 | 73 | 85 | 39 | 58 | 61 | 72 | 75 | 89 | 83 |

Talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari bo‘yicha tajriba-sinov ishlari oxirida statistik ko‘rsatkichlar taqqoslandi (5-jadvalga qarang):

5-jadval

Talabalarning harbiy-kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari bo‘yicha tajriba-sinov ishlari ning yakuniy solishtirma jadvali

| Tajriba guruh | Tadqiqot obyektlari | | I – yuqori | II – o‘rta | III – past | Jami |
|---------------|---|------------------------------------|------------|------------|------------|------|
| | Toshkent davlat pedagogika universiteti | Buxoro davlat pedagogika instituti | 38 | 26 | 14 | 78 |
| Nazorat guruh | Jami | | 108 | 73 | 39 | 220 |
| | Tadqiqot obyektlari | | I – yuqori | II – o‘rta | III – past | Jami |
